

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA
EKOLOGIK TARBIYA BERISH

Saydullayeva Barchinoy

*Andijon davlat pedagogika
instituti Maktabgacha ta'lim va
maxsus pedagogika fakulteti
o'qituvchisi.*

Rahimova Robiya,

Mirfayziyeva Laylo

*Andijon davlat pedagogika
instituti Maktabgacha ta'lim 1-
bosqich talabalari.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiya haqida tushuncha berish va olgan bilimlarini shakllantirish jarayonida ota-ona va pedagogning roli qanday ekanligi yoritib beriladi. Shuningdek bolalarni tabiat bilan tanishtirish ularning hayot davomida ekologik tarbiyaning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: ekologiya, maktabgacha yosh davri, Avesto, Komenskiy, O'rta Osiyo, Muhammad Muso al Xorazmiy.

Barkamol, har tomonlama yetuk farzand tarbiyalash hayotimiz va shu kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni atrof – muhit tabiat bilan tanishtirish muhim rol o'ynaydi. Tabiat-bitmas tuganmas xazinadir, aynan u bolalarni ma'naviy tarbiyalashda katta yordam beradi. O'rta Osiyo xalqlari jumladan o'zbek xalqi qadimdan ekologik madaniy me'rosiga ega. Qadimgi qo'lyozma "AVESTO" xalqimizning bebaho mulki sanaladi. "AVESTO" da yer, suv, xona, inson tana a'zolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida keltirib o'tilgan. Atrof-muhit, ko'chalarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolangan. Hattoki uy



hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish yo'llari ham ko'rsatilgan. Hozirgi kunda ham tabiatni asrash uni muhofaza qilish eng muhim dolzarb vazifa. Zero bolalarni to'g'ri tarbiyalash orqali ularning qalbida milliy g'oya, o'z vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarur. Maktabgacha yosh davri bu - 3yoshdan 7yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oluvchi davr hisoblanadi. Aynan shu davrning yosh bosqichlarida bolalarga tarbiya berish juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ekologik ta'lim -tarbiya berishda muhim vazifalardan biri bu bolalarning ekologik bilimga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi. Ekologik tarbiya bu - vatanparvarlikdir, ya'ni ekologiyani asrash -vatanni asrash demakdir. Ekologiya tushunchasi yunoncha so'z bo'lib "eko"-uy, yashash joyi, makon, maskan, "logos"-fan degan ma'noni bildiradi. Ya'ni o'z uyimizni asrab avaylaymiz, o'rganish deganda esa undagi barcha tirik organizmlar va jarayonlarni o'rganish qisqa qilib aytganda yashayotgan maskanni yaroqli holda asrab avaylash tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishning asosiy maqsadi bolalarni uyg'otish. Sodda qilib aytganda bolalarda tabiatga, atrof-olamga bo'lgan qiziqishlarini, hayvonot va o'simlik dunyosini o'rganishni, tevarak atrofdagi narsalarni asrab avaylashni o'rgatish muhimdir. Bolalar tabiat haqidagi bilimlarni o'rganib olib o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarishlash, tabiatni kuzatish va ona vatanga muhabbatli bo'lishni o'rganib boradilar. Aynan bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish, tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish, bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o'zlashtirilishiga erishish, tabiatda sodir bo'ladigan turli fojialarni anglash, ularning mohiyatini bilib olish, ekologiyaga oid ta'im vazifalarini ifodalash, tabiatga qadriyat sifatida qarash tuyg'usini uyg'otish va madaniyatini shakllantirish oddiy qilib aytganda atrofdagi dunyo bilan yaqindan tanishishga ota-ona va tarbiyachining o'rni muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda pedagogika fanining asoschilaridan biri ya'ni G'arbning ilg'or pedagogi Komenskiy: "Bolalarga beriladigan bilim hayotiylikka va ko'rgazmalilikka asoslanishi kerak"-degan fikrni



ilgari surgan. Ushbu fikrga ko'ra bola dunyo bilan tanishishda faqatgina ilmiy tasavvur bilan cheklanibgina qolmasdan, ko'rgazmali qurollar orqali bilimlarini boyitishi va albatta amaliy tadqiqotlar asosida o'zi uchun ma'lum hulosalarni chiqarilishi tushuniladi. Tabiatning faol himoyachilarini tarbiyalash uchun maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar bilan quyidagi ekologiyaning vazifalarini amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga tabiat olamidagi yangi voqea- hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida aniq bilimlar berish;
- bolalarda tabiatni asrab-avaylash uni boyitishga oid faoliyatni shakllantirish;
- bolalarni davlatimizning tabiatini qo'riqlash bo'yicha olib borayotgan ishlar bilan tanishtirib borishdir.

Ekologik ta'lim – tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ma'naviy – ma'rifiy tarbiyalash, tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishlarida katta yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tarbiya berishda unga toza kiyim kiydirish, yurish – turishining ozoda bo'lishini uqtirib turish ilk ekologik tarbiyaning asosi bo'ladi. Bola yashaydigan uy va uning atrofi toza, shinam va chiroyli bo'lsa, farzand ham shunday yashashga intiladi. Ekologik ta'lim, ya'ni sog'lom turmush tarzini tashkil qilishda tarbiyani ikki xil yo'l bilan amalga oshirish mumkin: birinchidan, ekologik ta'lim – tarbiya oilada ona – onalar ishtirokida; ikkinchidan maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida olib borilishi lozim. Agar ota – onada ekologik bilim shakllangan bo'lsa, kelajakda farzandining maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani olishi bosqichma – bosqich rivojlanib boradi. O'zbekistonning jannatmakon go'zal va betakror tabiati bola uchun kerakli bo'lgan bilim va taasurotlarni olishda yordam beruvchi manba hisoblanadi. Ayniqsa tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar, ranglar jilosi bolalarni o'ziga jalb qiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylik prinsipiga rioya qilinadi. Beriladigan bilimlar ilmiy bo'lishi bilan birga bola tushunadigan bo'lishi kerak. Bu borada tarbiyachining eng asosiy vazifasi bu-bilim doirasini kengligi va



har tomonlama hamma sohalar bilan bog'lay olishidadir. Tarbiyachi bolalarga bilim berishda o'z bilim doirasini kengaytirishi kerak. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini o'tkazishda, ekskursiyalar tashkil etishda tarbiyachining oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Tabiat haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish.

2. O'simliklar, hayvonlar, hasharotlar jamiyki jonzotlar haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish.

3. Jonzotlar bilan ehtiyotkorlik va g'amxorlik munosabatlarini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat bilan bog'chaga kelayotganda va bog'chadan qaytayotganda duch keladilar. Bu davrdagi bolalarda taqlidchanlik yuqori bo'ladi. Ayniqsa 3-4 yoshdagi bolalarda, ular hattoki bu ish to'g'ri notog'ri ekanligi farqlay olmaydilar shunchaki ko'rgan voqeani takrorlaydilar. Bolaga birinchi tarbiya beruvchi jamiyatning bir bo'g'ini hisoblangan institut bu - oila. Oiladagi ota-ona farzandini to'g'ri, ruhiy, jismoniy, aqliy hamda axloqiy tarbiya bera olsagina u farzand kelajakda yetuk shaxs bo'lib rivojlanadi. Ekologik tarbiyaning mohiyati haqida tabiatni qanday qilib asrash unga ziyon keltirmaslik tushunchalarini to'g'ri talqin qilib bergan ota-ona farzandi uchun yana bir bora ideal shaxslarga aylanadi. Nafaqat farzand uchun, balki, jamiyatimiz uchun ham ekologik tarbiya mohiyatini tushunib yetgan ota-onalar muhim. Tarixga nazar tashlasak buyuk alloma Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783-850) risolalaridan biridan bunday deb yozadi: "Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar!". Daryoning "yoshli ko'zlari" deganda Muhammad Muso al Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan? Ehtimol u daryo suvi insoniyatga taqdim etilgan eng ulug' ne'matlardan biri ekanligi va uning ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk alloma eng avvalo daryo bilan odamlarning "bir-birlarini tushunishlari", o'zaro mehr-muhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan. Bolalarga ekologik tarbiya berishning eng samarali usullaridan biri mehnat tarbiyasi bilan birgalikda olib borishdir. Ya'ni bolani bo'sh vaqtini unumli va foydali mashg'ulotlarga yo'naltirish kerak. Chunki tabiatga ozor berish bilan



bog'liq sho'xliklar ma'lum darajada bolaning bo'sh qolib ketishidan paydo bo'ladi. U hayronlarga va o'simliklarga o'zi tushunmagan holda ozor yetkazishi ham mumkin. Qushlarga tosh otish yoki daraxt ustiga chiqib daraxt shoxlarini sindirishi pishmagan mevalarini uzib olib ularni isrof qilishi ham bularga misol bo'la oladi. Aslida bola qushlarga ozor bermasdan ular bilan do'st tutunib ularga mehr ko'rsatish yoki parvarishlash yo'li bilan ham shodlanishi mumkin. Buning uchun bolada ekologik tarbiya ota-ona tomonidan tog'ri singdirilgan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalar ekologik tarbiyasidan ko'zlangan maqsadlardan biri-bir tomondan muqaddas ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan musaffo osmonimizni aslidagidek saqlashdan iborat. Yutrimizni obod qilishga qo'shiladigan yana bir katta hissamiz aynan ekologik tarbiyani bolalarga maktabgacha yosh davridan singdirib borish desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero bu orqali bolalarda tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat, obodonchilik va orastalik, pokizalik, tartiblilik, eng kerakligi mas'uliyat hissi kabi insoniy fazilatlar shakllanib boradi. Aynan maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs kamoloti va umuminsoniy qadriyatlar shakllanishining muhim bosqichidir. Ekologik tarbiya oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligida olib borilsagina bolalarda to'g'ri tushunchalar va kutilgan samarani beradi. Bola shaxsi o'zini tabiatning ajralmas qismi ekanligi haqida tasavvuri shakllanadi. Bunday ekologik tarbiyasi to'g'ri shakllangan bola kelajakda har tomonlama yetuk, barkamol va albatta jamiyat uchun foydali shaxs bo'lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Sodiqova. Maktabgacha Pedagogika- "Tafakkur Bo'stoni" Toshkent-2013.
2. N. M. Quchqorova, I. R. Avazmetova, D. U. Ikramova. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish – "Bookmany Print" Toshkent -2023.
3. A. Nigmatov. Maktabgacha ekologik ta'lim va tarbiya. "Innovatsiya-Ziyo" Toshkent-2020.



4.Z.N.Nodirova. Tabiat bilan tanishtirish va ekologik tarbiya.Toshkent -2022.

5.F.R.Qodirova ,Sh.Q.Toshpo`latova,N.M.Kayumova,M.N.A`zamova
Maktabgacha Pedagogika-“Taffakkur”Toshkent-2019.

6.P.A.Yusupova.Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish.”O`qituvchi” Toshkent-1995.

